



XUDOYBERDI TO'XTABOYEV ASARLARIDA NOKONSTRUKTIV BIRLIKLARNING IFODALANISHI

*Termiz davlat universiteti talabasi: Bozorova Aziza
Ilmiy rahbar: D.Ergasheva*

Annotatsiya: Ushbu maqolamiz oraqali nokonstruktiv birliklar haqida tushuncha, uning tilshunoslikda va adabiyotshunoslikdagi o'rni va ahamiyati haqida qisqacha ma'lumot berib o'tamiz. Tahlil vositasida Xudoyberdi To'xtaboyev asarlariga murojaat qilamiz.

Kalit so'zlar: Nokonstruktiv birlik, undalma, kiritma, kirish so'z, undov so'zlar, Xudoyberdi To'xtaboyev, "Besh bolali yigitcha", buyruq-xitob, achinish, xaydash-chaqirish, tasdiq-inkor, so'z gaplar.

Kirish so'zlar gapning, xususan, matnning umumiyligi mazmuniga daxldor bo'lsada, gapdagi biror bo'lak bilan hokim-tobelik aloqasiga kirmaydi, shuning uchun ular gapdagi boshqa bo'laklardan yozuvda vergul, tire, ba'zan qavslar bilan, talaffuzda esa kichik to'xtamlar bilan ajratiladi. Masalan, to'g'ri, yomon odam jazosini tortishi kerak, – dedi Saida. Siz, o'ylab qarasam, shu lavozimga loyiqsiz. Bunday atov birliklari va qurilmalar gap tarkibiga kirar ekan [Pm] tarkibidagi modal yoki kirish kengaytiruvchisi deb ataladi. Ular gapda boshqa bo'laklarga grammatick jihatdan bog'lanmaganligi bois unga nisbatan nokonstruktiv bo'lagi atamasi bilan nomlanadi. Shunday birliklarga undalma, kiritma va undov so'zlarni ham misol qila olamiz. Kiritma qurilma gap holatida bo'lib, nutqda gapdan anglashilyotgan fikrga qo'shimcha tariqasidagi yangi fikrni bayon etish vositasidir. Kiritma kirish gapdan o'zining gaplik mohiyatiga to'la egaligi bilan ajralib turadi. Masalan, buvamga (hamma band bo'lgnligi uchun) men qarashib turadigan bo'ldim. Bu yerda hamma band bo'lganligi uchun qurilmasi kiritma gap bo'lib, umumiyligi mazmunini izohlash vazifasini bajarmoqda.

So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki narsani bildiradigan so'z yoki birikma undalma deyiladi. Masalan, qarg'avoy, men seni yeyman. Oyijonin, sizni judayam yaxshi ko'raman. Undalma gapning barcha o'rinalarda kelishi mumkin. Gap tarkibida boshqa bo'laklar bilan grammatick aloqaga kirishmaydi. Lekin undalma mustaqil gap maqomini ham olishi mumkin. Masalan, bola qichqirdi: "Dada!" Opa! Keldingizmi?

Undovlar—his-hayajon, buyruq-xitob, haydash, chaqirish kabi ma'nolarni bildiruvchi gap bo'laklari bilan grammatick bo'lanmaydigan so'z turkumidir. Undov so'zlar 2 turga bo'linadi: emotsional (hissiy) va buyruq-xitob (imperativ). Emotsional kishilarining his-tuyg 'usi, ruhiy holatini bildiruvchi bo'lib, ular ma'no jihatidan rang-barangdir. U matn va ohang bilan bog'liq ravishda: shafqat, mehribonlik (iye, ho, o 'hho), qoyil qolish, rohatlanish (hayhay,, voy, o), mamnuniyat, faxrlanish, xayrixohlik



(eha,, eh, ehe), undash, ogohlantirish, tasdiq (hayhay,ha), kinoya, kesatiq, piching (obbo, o‘hho‘)kabi ma ‘nolarni bildiradi.

Nokonstruktiv birliklardan namunalarni o ‘zbek adabiyotining sevimli adibi, bolalar adabiyotining yirik ijodkori Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Besh bolali yigitcha” asari misolida yana kengroq ko’rib chiqamiz.

– Mayli, – dedim parvoyimga ham keltirmay – besh-o‘n kundan buyun bet-qo‘limni yuvganim yo ‘q. (11-bet). Ushbu misolda mayli modal so’zi keltirilgan bo’lib, umumiy gap mazmuniga rozilik ma‘ nosini yuklamoqda.

– Xo‘sh, makkani ertaga uqalasak nima bo‘libdi? (11-bet). Xo‘sh so’zi buyerda ta’kid ma’nosini bermoqda.

– Yig‘lama, qiz, yig‘lama. (12-bet). Bu misolimizda undalma ishtirok etgan.

– Cho‘, eshagim. (15-bet).

Ie, tenrak nega yig‘laysan? Bu gaplarda birvarakayiga ikkita nokonstruktiv birlik qatnashgan, ya‘ni “cho” haydash-chaqirish undovi, “ie” his-hayajon undovii “eshagim” va "tentak" esa undalma bo‘lib kelmoqda.

– Aka, Zulayhoni qarang, qizil toshlarimni olib qo‘ydi. (16-bet).

– Polvon tog ‘a, sizga eshak mingan xabarchi kelibdi,-deb qo‘ydi. (20-bet)

– Polvon, qani beri kelchi, deb dadamni chaqira boshladi. (22-bet).

– Usmon, sen o‘lding. (51-bet).

– Amaki, o‘zim yetimlik bilan katta bo‘lib, yuragim to‘la qon edi. (22-bet).

Yuqorida keltirilgan barcha misollarimizda undalma nokonstruktiv birlik sifatida ifodalangan.

– Ha, oyingiz, tomga chiqib oftob chuvoqda ko‘rpa qaviyaptimi? (11-bet)

– Yo ‘q, senga o ‘xshab bitta urg ‘ochi sigiri bor. (13-bet)

– Ha, besh bolali! (13-bet). Ushbu gaplarda qatnashgan “ha”, “yo‘q” modal so‘zlari umumiy gap mazmuniga tasdiq va inkor mazmunini bermoqda, hamda undalma ham ishtirok etmoqda

– Iloyo omin, -shunday dedi-yu, bir nafas jim bo ‘lib qoldi. (26-bet).

– Oblohu akbar,- deyishdi boshqalar (26-bet).

– Hechqisi yo‘q, -dedi komandir. (33-bet).

– Labbay, opa! (43-bet).

– Tovba, oq rang ham bo ‘ladimi? (61-bet).

– Xudoga shukur, o ‘zimniki! –deb qo ‘ydi opam. (62-bet).

–Obbo, shirinim-ey, beriroq yot – dedi opam. (58-bet). Ushbu misollarimizning barchasi so ‘z gaplar hisoblanib, bilamizki, so‘z gaplar nutqqa tayyor holatda kirib keladi, achinish, salomlashish, tasdiq, taklif, ishora kabi ma’nolarni beradi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, ushbu misollardan ham ko‘rinib turibdiki, nokonstruktiv birliklar (undalma, kirish so‘z, kiritma, undov so‘zlar) gap mazmuniga, balki, butun asar mazmumiga katta ta’sir ko’rsatadi, asarning ta’sirchanligini oshirib, kitobxonni yanada



qiziqishini oshiradi, hissiyotlarini qo'zg'atadi. Asar manzarasini ochib beradi. Nokonstruktiv birliklarning beryotgan ma'nolari orqali asarni ko'z oldida jonli tasvvur qiladi. Ishbu birliklardan to'g'ri foydalanish ham ijodkordan mahorat talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. R.Sayfullayeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. – 2020.
2. B.Mengliyev . Hozirgi o'zbek tili. Toshkent. – 2018.
3. X.To`xtaboyev. Besh bolali yigitcha. Toshkent. – .
4. Ergasheva D.A. Odil Yoqubov asarlarida inson ruhiy holati ifodalanishining lisoniy manzarasi // Сўз санъати халқаро журнали. – Тошкент, 2020. №1, 2-jild. ISSN: 2181-9297 Doi Journal 10.26739/2181-9297. – В. 99-103. (10.00.00 № 31)

